

NAVOIYNING QIT'ALARI TAHLILI

Alisher Navoiy asarlarini o‘qiyotganimizda Navoiy davridagi o‘zbek tili bugungi o‘zbek tilidan farq qilganini e’tiborga olishimiz lozim.

1. Hozirgi tilimizda qo‘llanmaydigan yoki kam qo‘llanadigan so‘zlar Navoiy davrida keng ishlataligani. Misol uchun:

ag ‘yor – begona, dushman;
g ‘ayr – boshqa, begona;
g ‘arib – bechora;
g ‘urbat – musofirlik, begona yurt;
shafiq – rahmdil, mehribon;
shafqat – rahmdillik, mehribonlik.

2. Ayrim so‘zlarning ma’nosini hozirigidan farq qilgan. Misol uchun, “jahl” so‘zi “bilimsizlik, nodonlik” ma’nosida qo‘llangan yoki “tuz” so‘zining “to ‘g‘ri, rost” ma’nosini ham bo‘lgan.

3. Ayrim so‘zlar va grammatik qo‘sishimchalarda ham farqlar mavjud. Misol uchun, “u” olmoshi “on” yoki “an” shaklida qo‘llangan: uni – oni. “Bo‘lmoq” so‘zi esa “o‘lmoq” shaklida, “-gin” qo‘sishimchasi “-g‘il” shaklida ishlataligan: bo‘lgin – o‘lg‘il.

Quyida ayrim qo‘sishimchalarning Navoiy davrida qanday shaklda ishlatalgani ko‘rsatilgan:

Hozirgi o‘zbek tilida	Navoiy davrida	Misol
-ga	-g‘a	Boshni fido ayla ato qoshig‘a ...
-dan	-din	El qochsa birov din , el yomoni bil oni ...
-man	-men	Jondin seni ko‘p sevar men , ey umri aziz ...
-ib	-ubon	Xub el bila suhbat tutub on xub o‘lg‘il ...
-dir	durur	Har nechaki ag‘yor durur ...

ALISHER NAVOIY QIT'ALARINI TAHLIL QILAMIZ

Yuqori o‘lturur kim tilasa,
Kishilikdan ani **yiroq bilgil**. }
O‘lturur safda yuqorilikdin
O‘lturur safda **yaxshiroq bilgil**.

yiroq bilgil –
yaxshiroq bilgil: a – a

1

Tuzlukka moyil o‘lki, ishing borg‘ay ilgari,
Yuz mushkil o‘lsa yo‘qsa ming ollingda har zamon.
Yuz safha bir qalam bila kotib qilur raqam,
Ming qo‘yni bir aso bila har yon surar shubon.

Ulug‘langan fazilat: to‘g‘rilik, halollik

Misoli: hassa

tuzluk – to‘g‘rilik, halollik
raqam qilmoq – yozmoq
shubon – cho‘pon

2

Nokas-u nojins avlordin kishi bo‘lsun debon,
Chekma mehnatkim, latif o‘lmas kasofat olami.
Kim, kuchuk birla xo‘dukka necha qilsang tarbiyat,
It bo‘lur, dog‘i eshak, bo‘lmaslar aslo odami.

nojins – yaramas
latif – latofatli, go‘zal

Nimaga targ‘ib: tabiatan nokas, yaramas odamni tarbiya qilishga urinmaslik

3

Kamol et kasbkim, olam uyidin –
Sanga farz o‘lmaq‘ay g‘amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o‘tmak biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq.

kasb etmoq – o‘rganmoq
g‘amnok – g‘amgin
notamom – nokomil
biaynih –xuddi, aynan

Nimaga targ‘ib: kamolotga erishish

Bunga erishmaslik misoli: hammomdan nopok chiqish

4

Kimki maxluq xizmatig‘a kamar
Chust etar – yaxshiroq usholsa beli.
Qo‘l qovushturg‘ucha bu avlodur
Ki aning chiqsa egni, sinsa ili.
Chun xushomad demakni boshlasa kosh
Kim tutulsa dami, kesilsa tili.

maxluq – yaratilgan, mavjudot
chust etmoq – bog‘lamoq
avlo – afzalroq, yaxshiroq
il (ilik) – qo‘l
dam – nafas; ovoz

Nima qoralangan: laganbardorlik, tilyog’lamalik

Bunday kishilarga nima deyilgan: beli sinsin, qo‘li sinsin, tili kesilsin

5

Navoiy, tiling asrag‘il zinhor,
Desangkim, yemay dahr ishidin fusus.
Nazar qilki, o‘q og‘zi tilsiz uchun
Qilur tojvarlar bila dastbo‘s.
Necha tojvardur, kesarlar boshin,
Chu hangomsiz nag‘ma tortar xurus.

dahr – zamon, dunyo
fusus – afsus
tojvar – toj egasi, podshoh
dastbo‘s – qo‘l o‘pish;muloqot
hangom – payt, fursat
xurus – xo‘roz

Nimaga targ‘ib: tilni asrash

Nima qoralangan: o‘rinsiz so‘zlash

Misol: xo‘roz

6

Ilmdin kasb qilki, sud ermas,
Charx mushkillarini hal qilmoq.
Lekin ul ilm dog‘i naf’ etmas,
Bilibon bo‘lmasa amal qilmoq.

sud – foyda
charx – osmon; zamon

Nimaga targ‘ib: ilm o‘rganish

Nimadan qaytarilgan: ilmiga amal qilmaslik

7

Kimki o‘zluk imoratin buzdi,
Bo‘ldi naqdi fano aning muzdi.
Ul imoratni buzmayin solik,
Bo‘la olmas bu naqdga molik.

Nima qoralangan: manmanlik

o‘zluk – menlik, manmanlik
muzd – haq, mukofot
solik – komillik yo‘liga kirgan
molik – ega

8

Ko‘b oltun, kumush sori qo‘l sunmog‘il
Ki, tutsang kafingni qaro rang etar.
Ko‘ngulda dog‘i maylini asrama,
Ki ko‘nglungni dog‘i ham ul zang etar.

Nimaga targ‘ib: boylikka ko‘ngil qo‘ymaslik

Nima qoralangan: boylik

sunmoq – uzatmoq, cho‘zmoq
mayl – istak, xohish

9

Erur ahli hunar qoshinda hunar
Ayb yopmoq, dog‘i hunar topmoq.
Hunarin elning oshkor etmoq
Yo‘q esa bori aybini yopmoq.

Nimaga targ‘ib: birovning aybini yashirmoq, oshkor etmaslik

ahli hunar – hunar egalari,
hunarmandlar

10

Tavakkulni ulkim qo‘yub, xotirig‘a
Tushar shoh ollinda qulluq havosi,
Nasibi aning bir ayoq osh erur bas,
Agar ganji Qorun erur muddaosi.
Biravkim, bo‘lur bir ayoq osh uchun qul,
Yuziga keraktur qazonning qarosi.

Nimaga targ‘ib: Allohga tavakkul qilish

Nima qoralangan: boylikka hirs qo‘yish

11

Yuziga asli yomonning ko‘p ochma gulshani xulq,
Siyah gilemga albatta mehr aylama fosh
Ki qilmadi gul isi birla toza ruh jual,
Quyosh charog‘ig‘a parvona bo‘lmadi xuffosh
Nima qoralangan: yomon xulqli kishilar

12

Qanoat go‘shasin tutqilki, chun anqo bu da’b etti,
Anga qushlar ichinda qurb Qofida nishimandur.

Chu parvoriy tovug‘ning og‘zi tinmas tu’madin garchi,
O‘lar oxir anga avval katak zindoni maskandur.

Nima ulug’langan: qanoat

13

Kiyib samur ila kish qilma asru ra’noliq,
Ipak libos ila tutma g‘urur jomi to‘la.

Tiyinning o‘z tuki-o‘q bo‘ldi jonig‘a ofat,
Farisaning paridin keldi o‘z boshig‘a balo.

Nima qoralangan: kibr, kiyimi bilan maqtanish

Misol: tiyin, farisa (hayvonlar)

14

Shahning af’oli etar xaylu sipohig‘a asar,
Chu nabi dediki, «annosu ‘alo dini muluk».

Hukamo ham dedilar shahni tengiz, xayli ariq,
Ul achig‘dur, bu achig‘, ul chuchuk o‘lsa, bu chuchuk.

Nima ulug’langan:adolat

Nima qoralangan: adolatsizlik

15

Debon bergen kishi erdur valekin
Demay berganga erlik bil musallam.

Ne deb, ne bersa bilgil ani xotun,
Debon bermasni xotundin dag‘i kam.

Nima ulug’langan: saxovat (saxiylik)

Nima qoralangan: baxillik (xasislik)

16

Ne rahraviki, toji hidoyat boshidadur,
Yo‘q bok, anga havodisi aflok toshidin.
Hudhudki, qo‘ydilar azaliy toj boshig‘a,
Tushgaymu jola yogg‘on ila toj boshidin.

Nima ulug’langan: to‘g‘rilik yoki hidoyat

Misoli: hudhud

17

Viqor gavhariyu hilm ma’dani bo‘lako‘r,
Desangki, qilg‘ay itoat sanga gado ila shoh.

Bu sheva tog‘da zohirdururki, davrondin,
Qachonki tafriha yetti ulusqa bo‘ldi panoh.

Nima ulug‘langan: viqorlilik, hilm (muloyim tabiatlilik)

Misoli: tog‘

18

Biyik maqomig‘a ulkim tilar sabot kerak,
Ki egrilikni qo‘yub, tuzluk aylasa qonun.
Tuz o‘lsa soyasida el tinib manor kibi,
Sipehr uyida turar qarnlar nechukki sutun,
Gar egridur yog‘ibon o‘qu bog‘lanib bo‘yin,
Bo‘lar qabaq yig‘ochidek besh-o‘ncha kunda nighun.

Nima ulug‘langan: to‘g‘rilik / Misoli: minora

Nima qoralangan: egrilik / Misoli: qabaq yog‘ochi (nishon uchun ishlatiladigan yog‘och)

19

To‘nni zarboft aylabon hiffatdin uchqon har taraf,
Yo‘q, ajab gar bor esa dunyo matoi kom anga.
Ul chibinkim, ko‘zga oltun yanglig‘ ishnor xil’ati,
Ko‘praki bilkim, najosat uzradur orom anga.

Qanday insonlar qoralangan: dunyoparast (boylikka o‘ch)

Nimaga o‘xshatilgan: chivin

20

Umrin ablah kechurub g‘aflat ila,
Nukta o‘rnig‘aki tortar xarros.
Bir eshakdurki, tag‘ofil yuzidin
Qilg‘ay izhor payopay arros.

Nima qoralangan: g‘ofillik, umrni g‘aflatda o‘tkazish

Misoli: eshak

21

Poklar joni bo‘lur ozurda tazvir ashkidin,
Ko‘zgu ruxsori nechukkim, zang tutqay nam bila.
Rostlar ko‘nglini aylar tiyra nodon yovadin,
Sham’ni ul nav’kim, johil o‘churgay dam bila.

Qanday kishilar qoralangan: nodon, johil

22

O‘yla g‘arqi maydururlar xalq bu davr ichrakim,
Shar’ning aynul-hayotidan asar mafhum emas.
Ul sifotkim, bahrning achchig suyida ba’ai el,

Topilur derlar chuchuk suv ham vale ma'lum emas.

Nima qoralangan: ichkilik

23

Turfa ish ko'rkim, falon har vaqtkim, qilg'ay namoz,
Anda bir ish g'ayri nomashru' zohir bo'limg'ay.
Gar qiyomu gar qiroat, gar rukuu, gar sujud,
Har ne qilg'ay o'z yerinda sodir bo'limg'ay,
Bo'limg'ay hozir jamoatqa vale yolg'uz dog'i,
Qilmag'ay to bir jamoat anda hozir bo'limg'ay,
Bovujudikim, jamoat aylagaylar barcha hazl,
To imomat qilmag'ay osuda xotir bo'limg'ay.

Qit'ada qoralangan imomlarga xos 2 jihatni yozing.

1-sifat: chalasavodlik, ilmsizlik

2-sifat: izzatparastlik

24

Falon kotib ar* xatni mundoq yozar,
Bu mansabdin ani qo'ormoq kerak.
Yuzin nomasidek qaro aylabon,
Qalamdek boshin dog'i yormoq kerak.
Qarodin qaroga beribon uloq.
Qalamravdin ani chiqormoq kerak. (ar* — agar)

Qit'ada qanday kotiblar qoralangan: xato yozuvchi, chalasavod

25

Yo'ldin ozdi har mulozimdinki g'aflat aylading,
Budur oyin gar gadoligidur ishing gar shohlig.
Urkudor eldekki chiqtı kecha yo'ldin markabi.
Ko'z yumub ochquncha chunkim qilmadi ogohlig.
Olam ahlida mulozimlar erur hayvon kibi,
Qaysi g'aflat anglog'och zohir qilur berohlig'.

Qit'ada qanday mulozimlar tanqid qilingan: fahmsiz mulozimlar

26

Yuz tuman nopok erdin yaxshiroq
Pok xotinlar ayog'inining izi,
Lut o'g'lin ko'rki soldi tiyralik
Ding'a nafs ilgida tab'i ojizi,
Dahr aro yoqtı sayodat mash'alin,
Pok ravliqtin rasululloh qizi.

Nima qoralangan: nopoklik / misoli: Lut o'g'li

Nima ulug‘langan: poklik / Rosululloh (s.a.v) qizlari

27

Tengri xonin ochuq aqida qilib,
Xalqdin ro‘zi istagan gumroh.
Uyladurkim tengiz qirog‘ingda,
Ro‘za ochmoqqa kimsa qozgay choh.

Qanday kishilar qoralangan: Allohdan emas, xalqdan nasiba istagan gumrohlar

28

Siyumni sochquchi mingdin birdur,
O‘zgalarning ishi keldi termak.
Ul jihatdan budurur odatkim,
Olmoq osonduru mushkul bermak.

Nima ulug‘langan: saxiylik

29

Falong‘a ajab hol erurkim xaloyiq,
Ne qilsa alar birladur mojarosi.
Sola olmas el oshig‘a bir nuxud, gar
Tuzilmas aning birla ul el arosi.
Qazon yo‘qliki ul anda kafliz emastur,
Ki, bo‘lsun yuziga hazonlar qarosi.

Qanday kishilar qoralangan: o‘zboshimcha, sergap, fosiq, fitna qo‘zg‘ovchi

30

Safih zolim ila bo‘lma xon uza hamdast,
Munosib o‘lmadi it chunki hamtabaqliqqa.
O‘zungga ablahi nodonni aylama hamroz,
Ki yaxshi emas eshak dog‘i hamsabaqliqqa.

Qanday kishilar qoralangan: aqlsiz zolim

31

Tavozu‘ yaxshi, ammo yaxshiroqdur
Agar da‘b etsa oni ahli davlat.
Erur ham afv xo‘bu xo‘broq ul,
Ki zohir bo‘lg‘oy el topqonda qudrat.
Ato ham turfa ishdur, turfaroq bil,
Agar yo‘qtur oning yonida minnat,
Hakim insonni komil debtur oni
Ki zotida bo‘lg‘ay bu necha xislat.

Nima ulug‘langan: tavoze, kechirimlilik, saxovat

32

Er urub la'l toj ila gulbong,
Zangvash el qaysi harzakim demagay,
Vaqtida tortibon xurus nido,
Ne najosatki mokiyon yemagay

Qanday kishilar qoralangan: nomard / misoli: makiyon(tovuq)

Qanday kishilar ulug'langan: mard / misoli: xo'roz

33

Quloqda asra garonmoya so'zniyu fikr et,
Ki dursiz o'lsa ne bo'lg'usidur sadaf holi.
So'zungni dogi ko'ngul ichra asrag'ilkim, hayf,
Kim o'yla durjni guhardii etgasen xoli.
Bu durju ikki sadafni to'la dur etganga,
Zihi uluvvi guhar, balki gavhariy oliy.

Nimaga da'vat etilgan: foydali so'zni asrash, unga quloq solish

34

Dur anga na so'z siflai naxs deb,
Qilur turku hindug'a zohir nifoq.
Biaynih aningdekki sichqay chibin,
Oq uzra qarou qaro uzra oq.

**siflai nahs — ishi yurmaydigan, badbaxt, shum*

Qit'ada o'ziga "na so'z" ki yiroq sezilsa, uni butunlay yo'qqa chiqaruvchi fosiqlik fosh etilgan. Unda ta'kidlanishicha, bunday kishilar fitna qo'zg'ovchilardir. Ular aqlari yetmagan haqiqatlarni yerga urish bilan qanoatlanmasdan, "turku hindug'a nifoq" ham zohir hilurlar. Bunday tovlamachilar hammayohni bulg'ovchi chivinga o'xshaydilar.

35

Az avomi tirayi purhirsi dunyo dur bosh,
Gar hamexohi, ki gardad sad mashaqqat az tu raf'
Dur budan beh zi g'avg'oi magas z-on ro', ki hast
Behadat ranj az hujumash lek ne imkonи naf'!

**avom — idroki past to'da*

**"Agar yuz mashaqqatdan qutulishni xohlasang, mana shu vahshiy olomondan yiroq bo'l". She'r tamsil usulida bitilgan. Misol uchun "magas"—pashsha obrazи tanlangan. Chunonchi: nafs hirsiga qul xaloyiq pashsha. Pashshaning ma'nosiz g'ing illashi-yu, xiraligidan kayfiyat buziladi. Nodon va gumrohlar ham shunaqa. Ulardan qancha uzoqlashilsa, ko'ngil o'shancha tinch va osuda!*

36

Hikmat ahli shohni daryoga tashbih ettilar,
Kim ham andin ko'p ziyonlar elga, ham ko'p sud erur,

Gah topar g‘avvos bir soatda yuz durri amin,
Gah nahang og‘zida yuz hasrat bila nobud erur.
**shohning adolati yokiadolatsizlik va jallodligi aytilgan*

37

Olmau gulob qaynaturg‘a
Tab’i ermas ulug‘ qazong‘a rog‘ib.
Demak 6u qazon kichikdur osru,
Ermas munga himmat ahli tolib.
Kim ruhu g‘aroyibining qazoni,
Mundin ham ulug‘ emas munosib.
**baxillik, himmatsizlik qoralangan*
**baxillik belgisi — kichik qozon*

38

Ulki, iflosdin ayog‘inda
Kafsh yo‘l azmi chog‘i yo‘qtur oning,
Shukr qildik boqib birov sori,
Ki yururga ayog‘i yo‘qtur oning.
**shukr qilishga da ‘vat qilingan*
**noshukrlit qoralangan*

39

Chu navkarga berding ijozat, yana
Kelib, qilsa xizmatqa qo‘ldoshliq.
Bil andoqki, juftunga bersang taloq,
Yana istagay qilmoq o‘ynoshlik
**qit‘ada munosabat va faoliyatdagi subutsizlik qoralanadi*

40

Ey Navoiy, bir qori kofirni ko‘rsang ishq aro ,
Ko‘rma oning holatin o‘z holatingdin ko‘p yiroh.
Senda 6u holat nihon keldi, anda oshkor,
Lekin ul yakranglik bobida sendin yaxshiroq.
**qit‘ada fosiqlar(yoki fosiqlik) qoralangan*

41

Ey ko‘ngul, **tan taxtasin** bu qa’ri yo‘q girdobdin
Istasang sohilg‘a chekmak, bilki, bu oson emas,
Piru iste’dodu tavfiq o‘lmasa bo‘lmas bu ish,
Kimdururkim, bag‘ri bu hasratdin aning qon emas.
**qit‘ada o‘zlik, manmanlik, takabburlik qoralangan*

42

Razm maydonidakim ikki tarafdin ahli harb,
Bosh ila jon tarkin aylarlar ajab hangomadur.
Kiynavarlar anda javshan kiysalar tan hifzig‘a,
Jism sanduqi uchun go‘yoki ohanjomadur.

**kek saqlovchilar haqida*

43

Kishiki, ilgini ustun tilar, saxo qildik,
Qo‘lida zahri halohilu gar Xizr suyidur.
Ki, berguchi agar o‘lsun gadoyu olg‘uchi shoh,
Berur ilik yuqoriyu olur ilik quyidur.

**qit’ada saxovat, saxiylik ulug‘langan*

44

Har kishikim topsa davron ichra johu e’tibor
Kim, aning zotida bedodu sitam bo‘lg‘ay qilig‘.
Yaxshilig‘ gar qilmasa, bori yomonlig‘ qilmasa
Kim, yomonlig‘ qilmasa, qilg‘ancha bordur yaxshilig‘.
**qit’ada yomonlik qilmaslikka (yaxshilik qilishga) da ’vat qilingan*

45

Sinuq safolki, may durdin ichkali topsang,
Qabul aylamgil jomi sultanat Jamdin.
Ililik kirsa quruq non, maosh uchun chekma
Nashot ne’matining minnatini Hotamdin.

**qit’ada qanoat (shukr qilish) ulug‘langan, qanoatsizlik (noshukrlik) qoralangan*

46

Og‘zinga kirgan takallum rishtasin chekma uzun
Kim, bu ishtin sarnigunluq yuzlanib, nuqson kelur.
Ko‘rki, chun og‘zig‘a kirgan rishtasig‘a berdi tul,
Ankabut ul rishtadin har dam nigunsor osilur
**qit’ada kamgaplik (gapisirish) ulug‘langan, ko ‘p gapisirish (sergaplik) qoralangan*
**misoli — o ‘rgimchak*

47

Yigitligimdaki, taqvoyu zuhd vaqt edi,
Fujuru fisq bila zoe’ ayladim avqot.
O‘tub yigitlik, uyla menga keldi chun qarilig‘,
Maosh odati ma’hud ila kechursam, uyot.
Desamki, toat etib, sajdadin ko‘tarmay bosh,
Boshimga urg‘ali loyiq, ko‘runub ul toot.

Qazodin ulcha manga keldi, zikri hojat emas,

Bilur chu shiddati holimni qoziyul-hojot.

**yoshlik, yigitlikni qadriga yetish, vaqtni qadrlash*

48

Nihoni igna sanchar yorlardin,

Aduvash novak afg‘onlar ko‘q ortuq.

Munofiq sheva zolim do‘stlardin,

Muxolif tab’ dushmanlar ko‘q ortuq.

**qit’ada munofiq(ortdan ishq qiluvchi) “do ‘stlar” qoralangan*

49

Rozni asra, chunki fosh etting,

Yana pinhon bo‘urni qilma havas.

Ko‘nglung ichra nafas kabidur roz,

Qaytmas, kimsadin chu chiqtin nafas.

**qit’ada sir saqlashga da ’vat etilgan, sir nafasga o ‘xshatilgan*

50

Uch kishidin uch ish yomon ko ‘rinur,

Sanga arz aylay ahli dunyodin:

Shohdin tundlug‘, g‘anidin buxl,

Molg‘a hirsu mayl donodin.

**shohga tundlik (qo ‘rslik), boyga baxillik, donoga, boylikka hirs qo ‘yish yarashmasligi aytilgan*